

ARAB-MUSULMON SHARQIDA MADANIYAT VA ILMIY-FALSAFIY FIKR TARAQQIYOTINING TARIXIY REKONSTRUKTSIYASI (VIII-XII ASRLAR)

Mamadaliyev A.A.

TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati yonalishi 1 – kurs magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.d., professor, Izzetova E.M.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada VIII–XII asrlarda Arab-musulmon Sharqida ilm-fan va falsafiy tafakkurning taraqqiyot jarayoni tarixiy rekonstruksiya, matnshunoslik va falsafiy-tahliliy metodlar asosida tadqiq etiladi. Bag‘dod, Buxoro va Damasq kabi ilmiy markazlarning shakllanishi, "Bayt al-Hikma" faoliyati, yunon, hind va fors tafakkuri bilan uyg‘unlashgan tarjima maktablari faoliyati yoritiladi. Al-Xorazmiy, Al-Farobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Al-Beruniy kabi mutafakkirlarning mantiq, metafizika, matematika, astronomiya, tibbiyot, kimyo va siyosiy falsafa sohalaridagi ilmiy merosi tahlil qilinadi. Shuningdek, Sharq peripatetiklari faoliyati, sufiylik falsafasi, ratsionalizmning metodologik o‘rni hamda falsafa va ilohiyot o‘rtasidagi munozaralar ochib beriladi. Arab-musulmon tafakkurining Yevropa sxolastikasi va Uyg‘onish davriga ko‘rsatgan ta’siri baholanadi. Maqola yakunida ilm-fan taraqqiyotining sekinlashishiga olib kelgan siyosiy va diniy omillar, shuningdek, musulmon falsafasining zamonaviy dolzarbligi muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Arab-musulmon Sharqi, ilm-fan, Al-Xorazmiy, Al-Farobiy, Ibn Sino, ilmiy meros, tarjima maktabi.

HISTORICAL RECONSTRUCTION OF THE DEVELOPMENT OF CULTURE AND SCIENTIFIC AND PHILOSOPHICAL THOUGHT IN THE ARAB-MUSLIM EAST (VIII-XII CENTURIES)

ABSTRACT

This article explores the development of scientific and philosophical thought in the Arab-Muslim East during the 8th–12th centuries, employing methods of historical reconstruction, textual analysis, and philosophical-theoretical approaches. It examines the formation of major intellectual centers such as Baghdad, Bukhara, and Damascus, the activities of the “Bayt al-Hikma” (House of Wisdom), and the work of translation schools that integrated Greek, Indian, and Persian traditions. The scientific legacy of prominent scholars—including Al-Khwarizmi, Al-Farabi, Ibn Sina,

Ibn Rushd, and Al-Biruni—is analyzed across fields such as logic, metaphysics, mathematics, astronomy, medicine, chemistry, and political philosophy. Special attention is given to the contributions of Eastern Peripatetics, the role of Sufi philosophy, the methodological function of rationalism, and debates between philosophy and theology. The article also assesses the influence of Arab-Muslim intellectual thought on European scholasticism and the Renaissance, while discussing the political and religious factors that contributed to the decline of scientific progress and the contemporary relevance of Islamic philosophy.

Keywords: Arab-Muslim Sharqi, science, Al-Khwarazmi, Al-Farabi, Ibn Sina, scientific heritage, School of translation.

ИСТОРИЧЕСКАЯ РЕКОНСТРУКЦИЯ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ И НАУЧНО-ФИЛОСОФСКОЙ МЫСЛИ НА АРАБО-МУСУЛЬМАНСКОМ ВОСТОКЕ (VIII-XII вв.)

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается процесс развития научно-философской мысли в арабо-мусульманском Востоке в VIII–XII веках на основе методов исторической реконструкции, текстуального анализа и философско-теоретического подхода. Освещается формирование научных центров, таких как Багдад, Бухара и Дамаск, деятельность «Дома мудрости» (Байт ал-Хикма), а также функционирование школ перевода, в которых гармонично сочетались элементы греческой, индийской и персидской мыслительной традиции. Анализируется научное наследие таких выдающихся мыслителей, как Аль-Хорезми, Аль-Фараби, Ибн Сина, Ибн Рушд и Аль-Беруни в области логики, метафизики, математики, астрономии, медицины, химии и политической философии. Отдельное внимание уделяется деятельности восточных перипатетиков, философии суфизма, методологической роли рационализма, а также дебатам между философией и теологией. В заключение оценивается влияние арабо-мусульманской мысли на европейскую схоластику и эпоху Возрождения, а также обсуждаются политические и религиозные факторы, приведшие к замедлению научного прогресса, и современная актуальность мусульманской философии.

Ключевые слова: арабо-мусульманский Восток, наука, аль-Хорезми, аль-Фараби, ибн Сина, научное наследие, школа перевода.

KIRISH

Arab-musulmon Sharqi VIII-XII asrlarda ilmiy va falsafiy tafakkurning yuksak cho‘qqisiga erishib, jahon tamadduni rivojiga beqiyos hissa qo‘shdi. Ushbu davrda shakllangan ilmiy-ma‘naviy meros nafaqat Islom olamida, balki Yevropa Uyg‘onish davrining ilmiy paradigmasida ham hal qiluvchi rol o‘ynadi. Bag‘dod, Buxoro va boshqa ilmiy markazlar mutafakkirlarning faoliyat yuritishi uchun qulay muhit yaratdi. Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Al-Kindiy, Al-Farobiy, Ibn Sino, Al-Beruniy va Ibn Rushd kabi allomalar matematika, astronomiya, tibbiyot, falsafa va boshqa fanlarning rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdilar.

Ushbu ilmiy-ma‘naviy meros bugungi ilm-fan rivojida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma‘naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim” [1], bu esa bugungi ilm-fan va falsafa taraqqiyotida tarixiy merosni chuqur o‘rganish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi VIII-XII asrlarda arab-musulmon Sharqida ilmiy-falsafiy tafakkurning rivojlanish jarayonini o‘rganish, uning asosiy bosqichlarini aniqlash va jahon ilm-fani hamda falsafasiga qo‘shgan hissasini tizimli ravishda tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

G‘arb olimlarining arab-musulmon ilm-fani bo‘yicha yondashuvlari asosan Sharq va G‘arb falsafasining o‘zaro ta’siri, ilmiy maktablarning rivojlanishi hamda arab-musulmon tafakkurining Yevropa Uyg‘onish davriga ta’siri kabi yo‘nalishlarga qaratilgan. M. Stepanyan, M. Bunge, Abd al-Rahman va A.Z. Obiedat tadqiqotlarida musulmon olimlarining ilmiy yutuqlari jahon fani va falsafasi rivojida hal qiluvchi rol o‘ynagani ta’kidlanadi [8, b. 35-38; 24, b. 45-47]. Xususan, M. Stepanyan madaniyatlararo falsafani turli sivilizatsiyalar o‘rtasidagi fikrlar almashinuvi va ilmiy metodologiyaning yangi shakllarini yaratish vositasi sifatida baholaydi. Unga ko‘ra, arab-musulmon falsafasining yunon, hind va fors tafakkur an‘analari bilan uyg‘unlashuvi Sharq va G‘arb tamaddunlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning eng yorqin namunalaridan biridir. “Madaniyatlararo falsafa nafaqat turli falsafiy maktablarning kesishish nuqtasidir, balki u yangi ilmiy paradigmalar shakllanishining negiziga aylanadi” [25, b. 75-76]. Ushbu yondashuv arab-musulmon tafakkurining mustaqil rivojlangan maktab sifatida shakllanganligini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqotchilar ilmiy metodologiya nuqtai nazaridan Sharq va G‘arb falsafasining o‘zaro uyg‘unligi,

falsafiy tafakkurning rivojlanish bosqichlari va musulmon mutafakkirlarining g'oyalarining Yevropaga kirib borish jarayonini yoritadi [8, b. 37].

Shu bilan birga, g'arb olimlarining tadqiqotlarning ayrimlarida arab-musulmon ilm-fani va falsafasining o'ziga xosligi kamroq yoritilgan bo'lib, u ko'pincha yunon falsafasining izdoshi sifatida baholanadi. Masalan, ayrim G'arb olimlari musulmon mutafakkirlarining falsafasini Aristotel va Platon qarashlarining qayta ishlangan shakli deb hisoblaydi, biroq boshqa tadqiqotchilar, jumladan A.Z. Obiedat, M. Bunge va Abd al-Rahman, arab tafakkuri nafaqat yunon falsafasining davomchisi, balki mustaqil yo'nalish sifatida shakllanganini ta'kidlaydi [8, b. 39; 18, b. 55-68]. Yevropa ilm-fanining rivojlanishida musulmon olimlarining o'rni borasida ham turli yondashuvlar mavjud. Masalan, ayrim G'arb tadqiqotchilari arab tarjimonlari va olimlarini Yevropa ilmiy taraqqiyotining faqat vositachilari sifatida talqin qilsa, boshqa olimlar, xususan, M.Stepanyan arab mutafakkirlarini fundamental ilmiy yutuqlarga erishgan mustaqil olimlar deb baholaydi [25, b. 76].

O'zbek tadqiqotchilarining asarlari Sharq va G'arb o'rtasidagi ilmiy aloqalar, arab-musulmon ilm-fani rivojining mahalliy omillari va Markaziy Osiyo olimlarining bu jarayondagi o'rniga urg'u beradi. I.R. Ikramova [24, b. 47] va Sh. Juraev [23, b. 21] tadqiqotlarida Ibn Sino va Al-Farobiyning ilmiy qarashlari faqat yunon falsafasi ta'siri natijasi emas, balki o'ziga xos falsafiy tizim ekanligi isbotlangan.

Shuningdek, B.S. Sulaymonov [26, b. 45] va R. Isakjdanov [14, b. 51] tadqiqotlarida Al-Farobiyning yunon falsafasini qabul qilish jarayoni hamda uning ma'rifiy va ilmiy an'analarga qo'shgan hissasi batafsil yoritilgan. B.S. Sulaimonov ilmiy tarjimalar jarayonini tahlil qilib, Al-Farobiyning yunon falsafasini qayta ishlashi, uning musulmon Sharqidagi ta'siri va ilmiy tafakkuriga qo'shgan hissasini ochib beradi. Uning ta'kidlashicha: "Tarjima maktablari nafaqat bilimlarni yetkazib berish bilan cheklangan, balki yunon falsafasini ijodiy qayta tushunish maydoniga ham aylangan bo'lib, bu Al-Farobiyning qadimgi g'oyalarni shunchaki takrorlash emas, balki ularni musulmon dunyosi haqiqatlariga mos ravishda moslashtirishiga imkon yaratdi. Natijada, u Sharq intellektual merosini sezilarli darajada boyitdi" [26, b. 45-46]. Shunday qilib, arab-musulmon tafakkurining shakllanishida tarjimalar jarayoni faqat bilim uzatish vositasi bo'lib qolmay, balki yangi falsafiy yondashuvlarni yaratishda muhim rol o'ynagan.

Ushbu tadqiqotda arab-musulmon falsafasining shakllanishi va taraqqiyoti ko'p qirrali metodologik yondashuvlar asosida o'rganiladi. Birinchi navbatda, tarixiy-komparativ tahlil usuli orqali arab-musulmon tafakkurining yunon, hind va fors falsafiy an'analari bilan o'zaro aloqalari aniqlanadi hamda bu ta'sirlar asosida shakllangan ilmiy asoslar tahlil qilinadi. Falsafiy-tahliliy metod esa Al-Kindiy, Al-

Farobiy, Ibn Sino va Ibn Rushd kabi yirik mutafakkirlarning aqliy bilish, mantiq va metafizikaga oid qarashlarini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, matnshunoslik yondashuvi musulmon olimlarining asl manbalari, ularning tarjimalari va ushbu asarlarning keyingi davrlardagi falsafiy an'analarga ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Tarixiy rekonstruksiya usuli yordamida esa Bag'dod, Buxoro va Damasq kabi yirik ilmiy markazlarning faoliyati, ilmiy tafakkurning shakllanish bosqichlari va ularning umumiy intellektual muhitdagi o'zni qayta tiklanadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan vorisiylik prinsipi esa arab-musulmon tafakkurining tarixiy uzviyligini yoritib beradi. Ushbu yondashuv orqali qadimgi yunon va hind falsafiy merosidan boshlab, musulmon intellektual maktablarining shakllanishi hamda keyingi G'arb falsafasiga ko'rsatgan ta'siri tizimli tarzda tahlil qilinadi. Bu esa ilmiy tafakkurda g'oyaviy izchillik va davomiylikni aniqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, germeneytik yondashuv o'rta asr musulmon faylasuflari asarlarida mujassam bo'lgan simvolik, metaforik va dini-falsafiy mazmunlarni sharhlash, ularning chuqur semantik qatlamlarini ochib berish imkonini beradi. Bu usul matnlarning tarixiy-konseptual kontekstdagi o'rnini belgilash va ularni zamonaviy tafakkur bilan bog'lashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bag'dod, Damasq va Buxoro Sharq uyg'onish davrining asosiy ilmiy markazlari sifatida tanilgan. Ayniqsa, Bag'doddagi "Bayt al-Hikma" markazi (VIII–IX asrlar) xalifa Al-Ma'mun davrida yunon, hind va fors manbalarining arab tiliga tarjima qilinishi orqali falsafa, tibbiyot, matematika va astronomiya rivojiga katta hissa qo'shgan.

Platon falsafasi Al-Farobiy va Ibn Sino asarlarida, jumladan "Madīnat al-Fāḍila"da, musulmon ijtimoiy tafakkuriga moslashtirilgan [3]. Aristotelning mantiqiy va metafizik g'oyalari esa Al-Kindiy, Ibn Rushd, Ibn Xaldun, Al-Farobiy va Ibn Sino tomonidan falsafiy tizimlar asosida qayta ishlangan [9, b. 25–26; 13]. Ayniqsa, Ibn Rushd Aristotelning eng chuqur sharhlovchisi bo'lib, uning g'oyalarini Yevropaga etkazishda muhim rol o'ynagan [11].

Neoplatonizm esa Suhrovardiy va Ibn Sino asarlarida yaqqol ko'rinib, ular ilohiy nur va borliq haqidagi konsepsiyalarni rivojlantirgan [15, b. 54]. Bu ta'sir ostida musulmon mutafakkirlar mantiq, metafizika, axloq va siyosiy falsafani yangi yondashuvlar bilan boyitdilar. Ayniqsa, Ibn Sino metafizikada mavjudlik va mohiyat haqidagi qarashlarini ilgari surgan [23, b. 21].

Matematika va astronomiyada Al-Xorazmiy algebra fanining asoschisi bo'lib, uning "Hisob al-jabr val-muqobala" asari Yevropa matematikasiga katta ta'sir

ko'rsatgan [6]. Al-Beruniy esa Yer radiusini aniqlash, koordinatalarni hisoblash va hind astronomiyasini o'rganish orqali ilmiy an'analar uzviyligini ta'minlagan [2]. Nasiriddin Tusiy Marog'a rasadxonasida yulduzlar harakatini kuzatish va astronomik jadval tuzish metodikasini ishlab chiqqan [17].

Tibbiyot sohasida arab olimlari dunyo tibbiyotining shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida kasalliklar, ularning oldini olish va davolash usullarini ilmiy asosda yoritgan bo'lib, bu asar asrlar davomida Yevropa universitetlarida asosiy qo'llanma sifatida qo'llanilgan [12]. Uning fiziologiya, farmakologiya va gigiyenaga oid qarashlari bugungi tibbiyot uchun ham ahamiyatli. Al-Zahroviy esa jarrohlik asboblari va amaliyotlarini rivojlantirib, zamonaviy tibbiyot asoslarining shakllanishiga xizmat qilgan [7].

Kimyo sohasida Jabir ibn Hayyon asosiy figuraga aylangan bo'lib, u tajriba asosida distillatsiya, kristallanish va sublimatsiya kabi jarayonlarni tizimlashtirgan. Metall oksidlanishi va kislotalar sinteziga oid tadqiqotlari Yevropa kimyo fanining rivojiga ta'sir ko'rsatgan [16].

Falsafada Al-Kindiy Aristotel va Platon g'oyalarini musulmon tafakkuri bilan uyg'unlashtirib, falsafa va ilohiyot o'rtasidagi bog'liqlikni asoslagan [5]. Al-Farobiy inson aqli va jamiyat masalalariga e'tibor qaratib, falsafani ijtimoiy taraqqiyot vositasi sifatida talqin qilgan. Ibn Rushd esa Aristotel asarlarini sharhlab, din va aql o'rtasidagi uyg'unlikni himoya qilgan va bu g'oyalari Yevropa Uyg'onish davriga kuchli ta'sir o'tkazgan [11].

VIII–XII asrlarda arab-musulmon dunyosida falsafiy-diniy munozaralar intellektual taraqqiyotning muhim omiliga aylandi. Bu davrda Al-G'azoliy va Ibn Rushd o'rtasidagi bahs ayniqsa dolzarb bo'lib, falsafa va ilohiyot o'rtasidagi ziddiyatni ifoda etdi. Al-G'azoliy "Tahofut al-falasifa" asarida Al-Farobiy va Ibn Sino qarashlarini tanqid qilib, falsafa orqali Xudoni anglash insonni adashtiradi, deb hisoblagan [4]. Ibn Rushd esa "Tahofut ut-tahofut" asarida aql va din uyg'unligini himoya qilgan hamda ularning o'zaro to'ldiruvchanligini asoslab bergan [11]. Bu g'oyalar Yevropa sxolastikasi, ayniqsa Foma Akvinskiy ta'limotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan [14, b. 49–50].

Ratsionalistik yondashuv bilan bir qatorda, bu davrda sufizm ham mustaqil falsafiy yo'nalish sifatida shakllandi. Al-Halloj, Junayd va Ibn Arabiy Xudoni intuitiv-mistik yo'l bilan anglash g'oyasini ilgari surdilar [10]. Sufiylar shaxsiy tajriba va moddiy dunyodan voz kechish orqali haqiqatga yetishish mumkinligini ta'kidladilar. Ularning falsafasi nafaqat nazariy qarashlar, balki poetik va ruhiy-mistik tajribalarni ham qamrab oldi. Sufizmning doktrinal asoslari va uning islom madaniyatiga ta'siri E.E. Bertels tomonidan chuqur tahlil qilingan [22, b. 112–134].

XII–XIII asrlarda arab asarlarining lotin tiliga tarjima qilinishi (Tolledo, Palermo, Monpelye kabi markazlarda) Yevropa ilm-fanining shakllanishiga kuchli turtki berdi [19, b. 22–23]. Yevropa olimlari ushbu tarjimalar orqali yunon faylasuflari va arab mutafakkirlarining, jumladan Ibn Rushd va Al-Farobiyning asarlari bilan tanishib, sxolastik falsafani rivojlantirdilar [20, b. 117]. Arab-musulmon tafakkuridagi mantiq, metafizika va tabiiy fanlarga oid yondashuvlar Yevropa falsafasi uchun muhim manbaga aylandi.

Arab-musulmon ilm-fani va falsafasi jahon tamadduni rivojida muhim o‘rin egallab, Sharq va G‘arb ilmiy an‘analari o‘rtasida bog‘lovchi rol o‘ynadi. VIII–XII asrlar davomida Bag‘dod va Andalus ilmiy markazlari turli sivilizatsiyalar o‘rtasidagi bilim almashinuvining asosiy o‘choqlari sifatida shakllangan bo‘lib, bu jarayon Yevropa Uyg‘onish davri va ilmiy inqilobning poydevorini yaratishda katta ahamiyat kasb etdi [21, b. 91–93]. Ushbu jarayon natijasida matematikadan tibbiyotgacha bo‘lgan fan sohalari jadal rivojlandi va keyinchalik Yevropaga ham katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Biroq, XII–XIV asrlardan boshlab, musulmon ilm-fani va falsafasining rivojlanishi sekinlashdi. Bunga bir necha omillar sabab bo‘ldi. Siyosiy inqiroz va mo‘g‘ullar istilosi ilmiy markazlarning barbod bo‘lishiga olib keldi. 1258 yilda Bag‘dodning mo‘g‘ullar tomonidan vayron qilinishi “Bayt al-Hikma” ning yo‘q bo‘lishi bilan musulmon dunyosidagi ilmiy faoliyatga jiddiy zarba berdi [8, b. 27]. Andalusda esa musulmon ilm-fanining inqirozi XIV–XV asrlarga kelib kuchayib, 1492 yilda Granadaning qulashi bilan musulmon madaniyati va ilmiy markazlari butkul yo‘qolib ketdi.

Bundan tashqari, diniy konservatizmning kuchayishi ham ilmiy taraqqiyotga teskari ta‘sir ko‘rsatdi. Ibn Rushd falsafani islom aqidasi bilan uyg‘unlashtirishga uringan bo‘lsa-da, uning qarashlari Andalusda diniy doiralar tomonidan rad etildi. Ibn Rushdning asarlari musulmon dunyosida chetga surilgan bo‘lsa, Yevropada esa ularning ta‘siri tobora kuchayib bordi [11]. Shuningdek, Ibn Sinoning tibbiyot va falsafadagi ilg‘or g‘oyalari Yevropada asrlar davomida asosiy manba sifatida xizmat qilgan bo‘lsa-da, musulmon olamida tibbiyot ilmiga bo‘lgan e‘tibor asta-sekin susaydi.

Falsafiy tafakkur tarixida peripatetik maktab alohida o‘rin egallaydi. Bu yo‘nalish asosan Aristotel ta‘limotiga tayangan holda shakllangan bo‘lib, bilish jarayonida aql va mantiqning ustuvorligini ta‘kidlaydi. Antik davrda vujudga kelgan ushbu yondashuv o‘rta asrlarda musulmon Sharqida qayta talqin etilib, yangi falsafiy tizimlarning shakllanishiga asos bo‘ldi [28, b. 137, 394].

Musulmon dunyosida ushbu an'ananing davomchilari "Sharq peripatetiklari" deb atalgan bo'lib, ular orasida Al-Farobiy, Ibn Sino va Ibn Rushd kabi mutafakkirlar alohida ajralib turadi. Ushbu faylasuflar Aristotelning mantiqiy tizimi, metafizikasi va tabiiy falsafasini chuqur o'rganib, uni musulmon ilmiy-madaniy muhitiga moslashtirdilar [29, b. 179-181]. Ularning asarlarida yunon tafakkuri elementlari bilan bir qatorda, islom falsafiy-ma'naviy qadriyatlarini uyg'unlashgan bo'lib, bu yondashuv mustaqil ilmiy-falsafiy maktabning shakllanishiga zamin yaratdi.

Sharq peripatetiklarining tafakkurida ratsionalistik yondashuv asosiy metodologik tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. Aql, mantiqiy tahlil va tushunishga asoslangan bilish jarayoni nafaqat tabiiy fanlar, balki metafizika, axloq va siyosiy falsafa sohalarida ham keng qo'llanilgan [30, b. 133-137]. Bu esa o'rta asr musulmon olamida ilm-fan va falsafaning uzviy taraqqiyotini ta'minlagan omillardan biri bo'ldi. Ayniqsa, Al-Farobiy va Ibn Sino tomonidan ishlab chiqilgan ratsional-falsafiy tizimlar Yevropa sxolastik tafakkurining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Shunga qaramay, musulmon falsafasining ta'siri bugungi ilm-fanda ham sezilarli darajada saqlanib qolgan. Ibn Rushdning aql va din uyg'unligi haqidagi qarashlari zamonaviy falsafa va etika sohalarida ham muhokama qilinmoqda [27, b. 51-74]. U inson tafakkurining mustaqilligini asoslab bergan bo'lib, bu fikr sekulyar falsafiy tizimlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Ibn Sinoning ilmiy metodologiyasi esa eksperimental tibbiyot va tabiiy fanlarning rivojiga hissa qo'shib, zamonaviy tibbiyot etikasi va biotibbiyot tamoyillarida aks etmoqda.

XULOSA

Arab-musulmon ilm-fani VIII-XII asrlarda Sharq va G'arb tamaddunlari o'rtasidagi ilmiy muloqotning muhim bo'g'ini bo'lib, jahon ilm-faniga katta hissa qo'shdi. Bag'dod va Andalus ilmiy markazlari matematika, astronomiya, tibbiyot, kimyo va falsafa sohalarida yuksak natijalarga erishib, Yevropa Uyg'onish davri fanining shakllanishiga asos yaratdi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

– arab-musulmon olami ilm-fani Sharq va G'arb ilmiy merosini uyg'unlashtirishga xizmat qilgan. Yunon, hind va fors manbalarining arab tiliga tarjima qilinishi ilm-fanning rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'ldi.

– Musulmon olimlari Yevropa ilm-faniga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Al-Farobiy, Ibn Sino va Ibn Rushd kabi mutafakkirlarning asarlari Yevropa universitetlarida o'rganilib, Yevropa sxolastikasi va tabiiy fanlarning rivojiga asos bo'ldi.

– Ilm-fan rivojlanishining sekinlashishiga siyosiy va ijtimoiy omillar sabab bo'ldi. Mo'g'ullar istilosi, Bag'dodning 1258 yilda vayron qilinishi, Andalus ilmiy

markazlarining yoʻqolishi va diniy konservatizmning kuchayishi arab-musulmon olamida ilmiy taraqqiyotning pasayishiga olib keldi.

–Musulmon falsafasi va ilmiy merosi bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolgan. Ibn Rushdning falsafiy gʻoyalari zamonaviy dinshunoslik va etika tadqiqotlarida muhim oʻrin egallaydi, Ibn Sinoning ilmiy metodologiyasi esa hozirgi tibbiyot va tabiiy fanlarda oʻz aksini topmoqda.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oʻqituvchi va murabbiylar kuniga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqi – Tosheknt, 30.09.2020. President.uz.
2. Al-Beroniy. Al-Qonun al-Masʻudiy. – Haydarobod: Dairat al-Ma'arif al-Osmania, 1954. – 3 jild.
3. Al-Farobiy. Madīnat al-Fāḍila. – Qom: Ayatollah al-Mar'ashi Najafi Library, 1988. – 312 b.
4. Al-Gʻazoliy. Tahafut al-Falasifa. – Qohira: Dar al-Ma'arif, 1961. – B. 300.
5. Al-Kindiy. Fi al-Falsafa al-Ula. – Qohira: Dar al-Fikr al-Arabi, 1950. –120b.
6. Al-Xorazmiy. Hisob al-jabr wal-muqabala. – Leyden: E.J. Brill, 1968. –90b.
7. Al-Zahroviy. At-Tasrif. – Qohira: Al-Matba'a al-Amiriyya, 1908. – 2 jild.
8. Bunge M., Abd al-Rahman T. Modernity and the Ideals of Arab-Islamic and Western-Scientific Philosophy // Springer. – 2023. – P. 25–38.
9. Ergashev O.B. Aristotel mantig'ining arab tiliga tarjima qilinishi va islom olamiga yoyilishi // Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – P. 23–34.
10. Ibn Arabiy. Fusus al-Hikam. – Qohira: Dar al-Kutub al-Misriyya, 1911. – 256 b.
11. Ibn Rushd. Tahafut at-Tahafut. – Hyderabad: Dairat al-Ma'arif al-Osmania, 1930. – 2 jild.
12. Ibn Sino. Al-Qonun fi-t-Tibb. – Rim: Typographia Medicea, 1593. – 5 jild.
13. Ibn Xaldun. Muqaddima. – Tunis: Al-Dar al-Tunisiyya lil-Nashr, 1967. – 3 jild.
14. Isakjdanov R. The Role of the Views of Muslim Thinkers in the Development of Philosophical Thought // JournalNX. – 2023. – P. 45–58.
15. Isroilov A.F. Sharq renessansi davrida ilm-fan va madaniyat rivoji // Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – P. 45–58.
16. Jabir ibn Hayyon. Kitab al-Kimyoy. – Qohira: Al-Maktaba al-Khanji, 1942. – 220b.
17. Nasiriddin Tusiy. Tahrir al-Majisti. – Hyderabad: Dairat al-Ma'arif al-Osmania, 1952. – 400b.

18. Obiedat A.Z. Modernity and the Ideals of Arab-Islamic and Western-Scientific Philosophy: The Worldviews of Mario Bunge and Taha Abd al-Rahman // 2022. – P. 55–68.
19. Ramziddin I. The birth of philosophy in the muslim east // Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2023. – P. 32–44.
20. Tatarkhanovich A.A. Influence of Arab-Muslim culture on the process of origin of Dagestan literature // Philology: scientific journal – 2022. – P. 112–125.
21. Yuldasheva X. The Role of Arab Intellectuals in the Formation and Development of National Identity // Sharqshunoslik. – 2024. – P. 89–103.
22. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. М.: Наука, 1965. С. 347.
23. Жураев Ш. Философские взгляды Абу Али Ибн Сины. – Ташкент: Узбекистан, 1980. –21с.
24. Икрамова И.Р. Шарқ ва ғарб фалсафаси уйғунлиги тимсоли аввероэсининг ҳаёти ва ижоди // Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – В.45–58.
25. Степанян М. Межкультурная философия: истоки, методология, проблематика, перспективы // 2024. – С. 77–92.
26. Суляйманов Б.С. Влияние древних и средневековых переводческих школ в развитии философского мышления Абу Насра Фараби // Endless light in science. – 2023. – С. 45–58.
27. Хайруллаев М.М., Бахадиров Р.М. Абу Абдуллах ал-Хорезми. X век. – М.: Наука, 1988. – 144 с.
28. Po‘latova D.A., Ro‘zmatova G.M. G‘arb falsafasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 516b.
29. Сагадеев А. В. Восточный перипатетизм. 2-е изд. – М.: Издательский Дом Марджани, 2022. – 248с.
30. Ходжиев Н.Н. Разумность и моральность в трактовке восточных перипатетиков // Endless light in science. – 2024. – № 2. – С. 133–137.